

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA DUR LEKSEMALI BIRIKMALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdishukurova Sevara Baxtiyar qizi

Kayumova Shahnoza Kobiljonovna

Filologiya fanlari Falsafa doktori f.f.f.d

Termiz davlat universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11076121>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida dur leksemasi, ushbu leksemali birikma, ularning maqollarda ishlatilish imkoniyatlari va polisemantik xususiyatlari o'zaro ma'nodoshlik kasb etgan va etmagan holatlari haqida so'z yuritadi.

**Kalit so'zlar:** Leksema, leksemali birlik, dur leksemasi, maqol, til ichki imkoniyati, polisemantik.

## SPECIFIC CHARACTERISTICS OF COMPOUNDS WITH DIFFERENT LEXEMAS IN ENGLISH AND UZBEK

**Abstract.** This article deals with the lexeme *dur*, compounds with this lexeme, potentialities of usage it in the proverbs, and whether there are similarities and special meanings of polysemantic features of the lexeme *dur* in English and Uzbek languages.

**Key words:** Lexeme, compound with lexeme, the lexeme *dur*, proverb, inner capability of the language, polysemantic.

## СПЕЦИФИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СЛОЖНЫХ СЛОЖНЫХ СЛОВ С РАЗНЫМИ ЛЕКЗЕМАМИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

**Аннотация.** В данной статье говорится о лексеме *dur* в английском и узбекском языках, сочетании с этой лексемой, возможностях их употребления в пословицах, а также многозначных особенностях случаев, когда они приобрели взаимное значение и нет.

**Ключевые слова:** Лексема, лексемная единица, лексема *dur*, пословица, внутренняя возможность языка, многозначность.

Bilamizki ingliz tili nafaqat ta'limda balki, texnologiya, internet, axborot va hatto turizmga ham eng kerakli bo'lgan tilga aylanib ulgurdi. Har qanday sohada eng so'ngi ma'lumot va bilimlar manba'ini ham aynan ingliz tilida topishimiz mumkin. Shu sababli so'ngi yillarda nafaqat ingliz tiliga balki uni o'zbek tili bilan taqqoslab o'rganish va ushbu til imkoniyatlarini har jihatdan o'rganishga zarurat tug'ilmoqda.

Bu jarayonda umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini har ikkala tilning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, tildagi lingvomadaniy, strukturaviy jihatlarni inobatga olgan holda tahlil qilish u tildan bu tilga ma'lumot almashish va tarjima jarayonida katta ahamiyatga ega. Shu o'rinda ikki tilda bir xil lug'aviy ma'noga ega leksema leksik birlik sifatida qo'shimcha o'ziga xos ma'nolarda ishlatilishi, ularning boshqa tushunchali leksemalar bilan birikib boshqacha ma'no ifodalashi mumkinligini hisobga oladigan bo'lsak, ***dur*** leksemali birikmalarni atroflicha o'rganish nafaqat tilshunoslik balki boshqa sohalar uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Dastlab leksema tushunchasiga to'xtalib o'tsak. "**Leksema** (yunoncha: *lexis* — so'z, ifoda) — til qurilishining leksik ma'no anglatuvchi lug'aviy birligi. Leksema bildiradigan ma'no so'zning material qismi: ma'lum tovush kompleksini ma'lum obyektiv voqelikka bog'lash bilan

kishi ongida yuzaga keladigan mazmun-mundarija.<sup>1</sup> Demak leksema atamasi leksik birlik sifatida tilda qo'llanilib, lug'aviy ma'nosi bolgan birlikka nisbatan qo'llaniladi, bu lug'aviy ma'no bir va undan ortiq bo'lishi ham mumkin. Quyida **dur** leksemasi haqida to'xtalib o'tamiz.

**Dur** leksemasi o'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan bo'lib, gavhar, injuning yirik turi ma'nosida ishlatiladi va marvarid, inju, gavhar so'zlari bilan ma'nodoshlik hosil qiladi. O'zbek tilida dur leksemasi adabiyotlarda va xalq og'zaki ijodida, xususan maqollarda ko'p uchraydi va ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega.

O'zbek maqollarida dur leksemasining qimmatli, aziz, nemat ma'nosida uchrashini ko'rishimiz mumkin.

1.Suv qatrası — dur qatrası ushbu maqolda suvning aziz ne'mat ekanligi uchun durga qiyoslab tasvirlangan.

2.Dono — durdan a'lo. Bu maqolda esa donolik sifatini durdan ham a'loga qo'yilyapti.

	<b>Dur</b> leksemasi	Misollar
.	<b>Injuning, gavharning yirik turi</b> <sup>2</sup>	1. <i>Dono durdan alo</i> 2. <i>Suv qatrası — dur qatrası</i> 3. <i>Aslida Ahmad yoqut nima, dur, brilliant, marvarid nima, unchalik farqiga bormas edi. F. Musajonov, „Himmat“</i> . 4. <i>Dudog'u bilaklarida, qulog'u barmoqlarida durru gavharlar, oltin bezaklar yiltirashib, bir jahon bo'lib, uyqu og'ushida yotibdi. Mirmuhsin, „Umid“</i>
.	<b>Bebaho, eng yaxshi narsa</b>	1. <i>Yaxshilik shunday durru gavharki, uning bahosi hech qachon kamaymaydi. Gazetadan</i> . 2. <i>Har so'zi shirin-shakar dur qizlar. "Mushtum"</i>
.	<b>Qimmatli, sermazmun ajoyib asar, sher</b>	1. <i>Men.. Navoiy "Xamsasining sarg'ish sahifalariga qarab olib yig'lardim, ko'z yoshlarim to'kilib, Navoiy tergan durlarga qorishardi. M. Ismoilii, „Farg'onada tong otguncha“</i>
	<b>Yorug'lik, yog'du</b>	2. <i>Quyosh separ nurlarin, Yerga zarrin durlarin. Zafar Diyor, „Asarlar“</i> .
	<b>Samara, hosila, natija</b>	3. <i>Bag'ringga dur sochdi oltin paxtazor! G. Jo'rayeva, „Iqbol“</i> . 2. <i>Gul ochilib so'lguncha, Qurti o'radi ipak. Xalq etagi to'lguncha dur to'kar etak-etak. Zulfiya, „Yuragimga yaqin kishilar“</i> .

<sup>1</sup> ."[https://uz.wikipedia.org/wiki/Leksema#:~:text=Leksema%20\(yunoncha,atamaları%20ham%20ishlatiladi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Leksema#:~:text=Leksema%20(yunoncha,atamaları%20ham%20ishlatiladi)

<sup>2</sup> .<https://izoh.uz/uz/word/dur>

	<b>Qut baraka, boylik</b>	<p>1. Ter to 'ksang, dur olasan. Maqol .</p> <p>2. Yerga chigit tushdi — dur tushdi deyishadi. Gazetadan .</p> <p>3. Ter to 'kildi — dur yetishtirildi. Gazetadan</p>
	<b>Suv va unga o'xshash tovlanuvchi narsalar tomchi, shudring, qor uchqunlari</b>	<p>1. Ro'paramda sonsiz fontashshir, Qulog'idan dur yog'iladi. X. Saloh, „Chashma“.</p> <p>2. Kechasi tushgan shudringga cho'milgan ko'm-ko'k maysalar xuddi dur to'kkandek charaqlab, quyosh bilan o'pishib tovlanadi. O. Yoqubov, „Ota izidan“.</p> <p>3. G'o'za yaproqlarida, Ko'katlarning bargida, Chechaklarning bag'rida Yaltirar lak-lak inju. Sho'x soy qirg'oqlarida, Nihollar kurtagida, Sal epkinda simobday Qaltirar lak-lak inju." Mirtemir</p>

Yuqoridagi jadvalda oxirgi misol sifatida dur leksemasi bilan ma'nodoshlik kasb etadigan inju leksemasi ham shudringga o'xshatib tasvirlangan.

Ingliz tilida dur, gavhar, inju ma'nolarida *pearl* leksemasi qo'llaniladi va qo'llanilish jihatidan o'zbek tili bilan ma'nodoshlik hosil qiladigan va o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan holatlar mavjud.

Quyida shularni ko'rib chiqamiz:

N	<i>Pearl</i> lexeme	Examples
1	<b>a small hard shiny white ball that forms inside the shell of an oyster and is of great value as a jewel</b> <sup>3</sup>	1. a string of pearls
2	<b>a necklace of pearls.</b>	1. She was wearing her pearls.
3	<b>a thing that looks like a pearl in shape or colour</b>	2. pearls of dew on the grass
4	<b>a thing that is very highly valued</b>	1. She is a pearl among women. 2. The ski resort is known as the Pearl of the Alps.
5	<b>a wise remark (usually</b>	1. students eager to catch pearls of wisdom from

<sup>3</sup><https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/pearl&ved=2ahUKEwit1IuajNqFAxVWQfEDHY0OACoQFnoECB4QAQ&usg=AOvVaw0RYJFPrWIP1mUK213E-O7e>

	<b>ironic)</b>	<i>the professor's lips</i> <i>2.They would treat these pearls of wisdom with some scepticism.</i> <i>3.His journals are full of dubious pearls of homespun wisdom.</i>
6	<b>Heaven (with the reference to the Bible)</b>	<i>1.The Pearly Gates the imaginary entrance to the Heaven</i>

Ushbu misollarda ko'rishimiz mumkinki, ingliz va o'zbek tilida dur leksemasi polisemantik ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega va o'z ma'nolarida hamda ko'chma ma'nolarda qo'llanilish xususiyatiga ega. Va bu jarayonda ma'nodoshlik hosil qiladigan holatlar va alohida ma'no ifodalaydigan holatlar mavjud.

<b>Dur</b> leksemasi ma'nolari	Ingliz tili	O'zbek tili
1.Injuning, gavharning yirik turi	+	+
2.Bebaho, eng yaxshi narsa	+	+
3.Qimmatli. sermazzmun, ajoyib asar, sher	-	+
4.Yorug'lik, yog'du	-	+
5.Samara, hosila, natija	-	+
6.Qut baraka, boylik	-	+
7.Suv va unga o'xshash tovlanuvchi narsalar (tomchi, shudring, qor uchqunlari )	+	+
8.Taqinchoq, marjon (a necklace of pearls)	+	+
9.Oqilona izoh (a wise remark)	+	-
10.Jannat (Heaven)	+	-

Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qiladigan bo'lsak, o'zbek tilida **dur** leksemasining oqilona izoh ( a wise remark), jannat (Heaven) ma'nosida kelishi uchramasa, ingliz tilida **pearl** leksemasi nisbatan kamroq ma'nolarda ishlatilishini va qimmatbaho, ajoyib asar; yorug'lik yog'du; samara, hosila; qut-baraka, boylik ma'nolarida uchramasligini ko'rishimiz mumkin.

## REFERENCES

1. "[https://uz.wikipedia.org/wiki/Leksema#:~:text=Leksema%20\(yunoncha,atamalagi%20ham%20ishlatiladi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Leksema#:~:text=Leksema%20(yunoncha,atamalagi%20ham%20ishlatiladi)
2. <https://izoh.uz/uz/word/dur>
3. <https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/pearl&ved=2ahUKEwit1IuajNqFAxVWQfEDHY0OACoQFnoECB4QAQ&usg=AOvVaw0RYJFPrWIP1mUK213E-O7e>